



**“OSHIQNOMA” TURKUMI DOSTONLARIDA KELISHIK
SHAKLLARINING QO‘LLANILISHI**

(“Roiy Chin”, “Erhasan” va “Edigo” dostonlari misolida)

Kamolova Farangiz Umidjon qizi,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,

Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkumiga kiruvchi Xorazm dostonlari tilidagi kelishik shakllarning qo‘llanilishi va ularning lisoniy xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, “Roiy Chin”, “Erhasan” va “Edigo” dostonlari matnidagi kelishik qo‘shimchalarining adabiy tildan farqli variantlari va ularning poetik vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Oshiqnoma” dostonlari, kelishik shakllari, dialektal leksika, poetik vazifa

Аннотация. В данной статье рассматривается употребление падежных форм и их лингвистические особенности в языке хорезмских дастанов, входящих в цикл «Ошиқнома». Особое внимание уделяется вариантам падежных аффиксов, отличающимся от норм литературного языка, зафиксированным в текстах дастанов «Ройи Чин», «Эрхасан» и «Эдиго», а также раскрываются их поэтические функции.

Ключевые слова: дастаны «Ошиқнома», падежные формы, диалектная лексика, поэтическая функция.

Abstract. This article analyzes the use of case forms and their linguistic features in the language of Khorezm epics belonging to the “Oshiqnoma” cycle. In particular, it examines the variants of case suffixes found in the texts of the epics “Roiy Chin,” “Erhasan,” and “Edigo” that differ from those of the standard literary language, as well as their poetic functions.

Keywords: “Oshiqnoma” epics, case forms, dialectal lexis, poetic function

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, dostonlar milliy tilimizning tarixiy taraqqiyotini, dialektal boyligini va badiiy imkoniyatlarini o‘rganishda boy manba bo‘lib



xizmat qiladi. Xorazm dostonchiligi o'zining qadimiy an'analari, o'ziga xos ijro uslubi va til xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, "Oshiqnoma" turkumiga kiruvchi dostonlar (masalan, "Roi Chin", "Erhasan" va "Edigo" dostonlari) tili nafaqat badiiy-estetik qimmati, balki jonli xalq tili va shevalariga xos bo'lgan lisoniy birliklarning saqlanib qolganligi bilan ham tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelmoqda.

Har qanday tilning grammatik qurilishida kelishik shakllari gapdagi so'zlarni o'zaro bog'lash va ma'no munosabatlarini ifodalashda markaziy o'rin tutadi. Badiiy matnda, ayniqsa dostonlar tilida kelishik qo'shimchalari faqat grammatik ko'rsatkich bo'lib qolmay, balki o'ziga xos poetik vazifalarni ham bajaradi. Mazkur maqolada Xorazm dostonchilik maktabining yorqin namunalari bo'lgan "Roi Chin", "Erhasan" va "Edigo" dostonlari misolida kelishik shakllarining qo'llanilish xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Dostonlar leksikasida she'riy o'rinlarda kelishik qo'shimchalarining fonetik o'zgarishi ko'proq uchraydi.

1. Tushum kelishigining turli variantlarda qo'llanishi:

Xorazm dostonlari tilida tushum kelishigi qo'shimchasining *-n* varianti eski o'zbek tilida ancha faol qo'llangan. Lekin u faqat III shaxs egalik affiksidan keyin qo'shilgan va bu forma she'riy asarlar uchun xarakterli bo'lib, prozaik asarlarda kam uchraydi [Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., 1973; 41]. Guvohi bo'lganimizdek, tushum kelishigi qo'shimchasining bu shakli she'riy parchalarda ko'proq qo'llanilgan.

Qazo yetmay ajal **mayin** ichibman,

O'z qo'limdin kafan **to'nin** bichibman...(O,1-kitob, Edigo,166).

Tushum kelishigi qo'shimchasining *-i* shaklida ishlatilishi XI-XII asrlar yodgorliklarida uchraydi. Bundan tashqari, bu qo'shimcha ozarbayjon, turk, turkman, gagavuz kabi o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xarakterli. Bu tillarning o'tmishida ham tushum kelishigi qo'shimchasi, asosan, shu shaklda ishlatilgan [Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш., 1973; 42].

Tuttim beglar bu dam safar raxtini,

Egam ochgay emdi maning **baxtimi**...(O,1-kitob, Edigo,196).

2. Qaratqich kelishigining qo'llanishi:



Qaratqich kelishigi qo'shimchasi ba'zan bugungi ko'pchilik shevalardagi kabi *-ni* (shaklan tushum kelishigi qo'shimchasining shakldoshi) orqali ifodalanadi:

Faqirlarni ishi bitgan,

G'ariblar dodig'a yetgan...(O,1-kitob, Edigo,164).

3.Jo'nalish kelishigining turli variantlarda qo'llanishi:

Arziruma mundin qilding iroda,

Xudo qilsin quvvatingni ziyoda,

Ilohim yetgaysan maqsad-**muroda**,

Borg'il Hasan, bir ollog'a topshirdim (O,4-kitob, Erhasan,177).

Keltirilgan parchada qo'llanilgan jo'nalish kelishigi qo'shimchasining *-a* tarzida qo'llanishiga ikki xil sabab mavjud. Avvalo, birinchi va ikkinchi misralardagi *iroda* va *ziyoda* so'zlariga nisbatan qofiyalashish jo'nalish kelishigi qo'shimchasining o'zgarishiga olib kelgan. Ikkinchidan, Xorazm o'g'uz shevalarida jo'nalish kelishigining *-a* varianti qadimiy bo'lib, mazkur holat ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Qofiya tanalayotganda mazkur holat qo'l kelgan desak, to'g'ri bo'ladi.

Sarima tushdi yuz savdo,

Saning ishqing qilib shaydo,

Marhamat aylagil **gono**,

Dilbar yuzing ko'ro keldim (O,1-kitob, Royi Chin, 137).

Ba'zi o'rinlarda *savdo* va *shaydo* so'zlariga nisbatan qofiyalanish jo'nalish kelishigi *-a* (jon+a) qo'shimchasining *-o* shaklida o'zgarishiga olib kelgan. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining *-o* shaklida qo'llanishi qofiyani ta'minlash, poetik ohangdorlikni kuchaytirish hamda emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qilgan.

Jo'nalish kelishigi adabiy tildagi kabi *-ga* shakli, ba'zan esa eski o'zbek tilidagi singari *-g'a* tarzida qo'llanilgan o'rinlar ham uchraydi. Xorazm shevalarida *-g'a* (qipchoq) varianti ham hozir faol qo'llanilmoqda:

Borolmadim, men **qoshig'a**,

Arzirim degra-**doshig'a**...(O,4-kitob, Erhasan,207).

Xorazm dostonlari tilida va shevalarda jo'nalish kelishigining qo'shimchasi (*-ga*) *-na* shaliga o'tadi:



Ketar bo'ldim din Xorazmin elina,

Otam-onam, mehribonim xush qoling...(O,1-kitob, Edigo,234).

4.Chiqish kelishigining turli variantlarda qo'llanishi:

Dostonlar tilida chiqish kelishigi adabiy shakli *-dan*, dialektal shakli hisoblangan *-nan* va adabiy-arxaik variant *-din* kabi shakllarda qo'llaniladi:

Saringdin do'nayin mehribon xo'jam,

Kimsa xolin **yaratgandin** ko'rmasmi...(O,1-kitob, Edigo,167).

-din qo'shimchasi qadimgi turkiy tilning oxirgi davrlariga xos yodnomalarda uchraydi [Абдурахмонов F., Рустамов A., 1982; 31]. Bu qo'shimcha ko'proq "Edigo" dostonida qo'llanilgan.

Kelding Arzirum elindan,

Daryosi tog'u **cho'linnan**,

Erhasanning **ahvolinnan**

Bir xabarni bering biza! (O,4-kitob, Erhasan, 208).

Chiqish kelishigi qo'shimchasining *-nan* shakli Xorazm shevalarida hozirgi kunda ham faol qo'llanilmoqda.

Xorazm dostonchilik maktabining yorqin namunalari bo'lgan "Royi Chin", "Erhasan" va "Edigo" dostonlari tili o'zbek tilining boy dialektal imkoniyatlari va tarixiy taraqqiyotini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, dostonlar tilidagi kelishik shakllarining qo'llanishi bevosita Xorazm shevalari, xususan, o'g'uz lahjasi bilan uzviy bog'liqdir. Chiqish kelishigining *-nan* shakli hamda jo'nalish kelishigining o'ziga xos variantlari dostonlar matnida nafaqat grammatik vazifa bajargan, balki asarlarning jonli xalq tiliga yaqinligini ta'minlagan. Ushbu lisoniy birliklarning bugungi kunda ham hududiy shevalarda faol qo'llanilishi dostonlar tilining hayotiyligidan dalolat beradi. Dostonlarda kelishik shakllari grammatik aloqani ta'minlash hamda she'riyatda muhim bo'lgan qofiya va vazn talablarini bajarish uchun ham xizmat qilgan. Kelishik shakllarining dostonlardagi tahlili o'zbek tili morfologiyasi, shevashunosligi va tarixiy grammatikasini chuqur o'rganishda beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I том. –Тошкент:Ўзбекистон ФА., 1961. – 344 бет.
2. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. -164 бет.
3. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. -312 бет.
4. Рўзимбоев С., Ешчонова Ғ., Рўзимбоев С., Ахмедов А. Ошиқнома. 1- китоб.– Урганч: Хоразм, 2006. – 324 бет.
5. Рўзимбоев С., Рўзимбоев С., Матёзова Н., Раимова Н. Ошиқнома. 4- китоб.– Урганч: Хоразм, 2009. - 354 бет.

